

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT

I. Umumiy ma’lumot

Davaktiv agentligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali 13 ta murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, ulardan 3 ta Andijon viloyati, 2 ta Jizzax viloyati, 1 ta Navoiy viloyati, 1 ta Farg‘ona viloyati, 1 ta Namangan viloyati, 1 ta Toshkent viloyati, 1 ta Toshkent shahar, 1 ta Sirdaryo viloyati, 1 ta Qashqadaryo viloyati, 1 ta Surxondaryo viloyati to‘g‘ri keladi.

Ushbu murojaatlarning kelib tushish manbalarini tahlil qilinganda, 3 ta murojaat veb sayt orqali, 10 ta murojaatlar pochta orqali kelib tushgan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Davaktiv agentligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlardan 7 tasi bo‘yicha tuzilgan ma’lumotlarga huquqiy baho berish uchun huquqni muhafaza qiluvchi organlarga yuborildi, 4 ta murojaat bo‘yicha holatlar o‘z tasdig‘ini topmadi, 2 ta murojaat bo‘yicha xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanildi.

III. Minimallashtirish choralari

Barcha xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini doimiy ravishda yangilab boradigan elektron tizimni hamda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelgan taqdirda zudlik bilan axborot berish va aniqlash tizimini yo‘lga qo‘yish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan video roliklarni ko‘paytirish, Davaktiv agentligi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda doimiy ravishda seminar va davra suhbatlarini o‘tkazib borish, davlat aktivlarini sotib olish yohud ijara olish bo‘yicha tuzilgan shartnomalarni ro‘yxatga olish, bekor qilish, o‘zgartirishlar kiritishda inson omilini kamaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplaens bo‘limi boshlig‘i**



A. Rajabov
A. Rajabov